



## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE NATURAL CONDITIONS OF THE OKTOV RANGE (IN THE EXAMPLE OF BAKHILTOG)

**Sh. I. Valiyeva**

*Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan*

**S. Sh. Khujakulov**

*Finnish Pedagogical Institute of Uzbekistan  
Uzbekistan*

**O. I. Khudoyberdiyev**

*Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan*

**M. Z. Sharipova**

*Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Oktov Ridge, Bakhiltog, natural conditions, geological features, biological diversity, water resources, ecological balance, natural resources.

**Received:** 20.09.24

**Accepted:** 22.09.24

**Published:** 24.09.24

**Abstract:** The article analyzes the natural conditions, geological features, landscape types and climatic conditions of the Bakhiltog region in the Oktov range. Bakhiltog region is one of the regions rich in biological diversity and natural resources, where water resources and flora are of great ecological importance. This article is aimed at an in-depth study of the ecological and economic aspects of Bakhiltog, and the possibilities of using the region in tourism and agriculture are also considered.

## OQTOV TIZMASI TABIIY SHAROITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (BAXILTOG' MISOLIDA)

**Sh. I. Valiyeva**

*Samarqand davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston*

**S. Sh. Xujaqulov**

*O'zbekiston Finlandsiya pedagogika instituti  
O'zbekiston*

**O. I. Xudoyberdiyev**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*Samarqand, O'zbekiston*

**M. Z. Sharipova**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*Samarqand, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Oqtov tizmasi, Baxiltog', tabiiy sharoitlar, geologik xususiyatlar, biologik xilma-xillik, suv resurslari, ekologik muvozanat, tabiiy resurslar.

**Annotatsiya:** Maqlada Oqtov tizmasidagi Baxiltog' mintaqasining tabiiy sharoitlari, geologik xususiyatlari, landshaft turlari va iqlim sharoitlari tahlil qilinadi. Baxiltog' mintaqasi biologik xilma-xillik va tabiiy resurslarga boy hududlardan biri bo'lib, u yerda suv resurslari va o'simlik dunyosi katta ekologik ahamiyatga ega. Ushbu maqola Baxiltog'ning ekologik va iqtisodiy jihatlarini chuqur o'rghanishga qaratilgan bo'lib, mintaqaning turizm va qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

## ОСОБЕННОСТИ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ ОКТОВСКОГО ХРЕБТА (НА ПРИМЕРЕ БАХИЛТОГА)

**Ш. И. Валиева**  
*Самарканский государственный университет*  
*Самарканд, Узбекистан*

**С. Ш. Худжакулов**  
*Финский педагогический институт Узбекистана*  
*Узбекистан*

**О. И. Худойбердиев**  
*Самарканский государственный университет*  
*Самарканд, Узбекистан*

**М. З. Шарипова**  
*Самарканский государственный университет*  
*Самарканд, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Октовский хребет, Бахилтог, природные условия, геологические особенности, биологическое разнообразие, водные ресурсы, экологический баланс, природные ресурсы.

**Аннотация:** В статье анализируются природные условия, геологические особенности, типы ландшафта и климатические условия Бахилтогского района Октовского хребта. Бахилтогский район – один из регионов, богатых биологическим разнообразием и природными ресурсами, где водные ресурсы и флора имеют большое экологическое значение. Данная статья

направлена на углубленное изучение эколого-экономических аспектов Бахилтога, а также рассматриваются возможности использования региона в туризме и сельском хозяйстве.

## KIRISH

Oqtov tizmasi o‘zining murakkab geologik tuzilishi va xilma-xil landshaftlari bilan ajralib turadi. Baxiltog‘ mintaqasi Oqtov tizmasining qimmatli tabiiy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda relyefning o‘ziga xosligi, iqlim sharoitlari, flora va fauna xilma-xilligi va suv resurslarining o‘ziga xosligi kuzatiladi. Baxiltog‘ mintaqasida biologik xilma-xillik va ekologik muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu hududda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikka erishish maqsadida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqola Baxiltog‘ning tabiiy sharoitlari va ularga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqish orqali, uning ekologik va iqtisodiy ahamiyatini o‘rganadi.

## ASOSIY QISM

Baxiltog‘ – O‘zbekiston hududining janubi-g‘arbida joylashgan o‘rtacha balandlikdagi tog‘dir. Bu tog‘ boshqa hududlardagi tog‘larning tabiatiga nisbatan ancha farq qiladi. Baxiltog‘ga Qizilqum yaqinligi natijasida uning tabiatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Pomir – Oloy tog‘ sistemasidagi bu tog‘ning geologik tuzilishida ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu hududda respublikamizda uchraydigan turli-tuman foydali qazilmalar va xom ashyo minerallari mavjud.

Baxiltog‘ning iqlim xususiyatlari va iqlim resurslarning mavjudligi bu yerda dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratgan. Hududda iqlim xususiyatlarini vujudga kelishida Oqtov tizma tog‘larini, shuning atrofidagi tizmalar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Baxiltog‘ janubiy-g‘arbda O‘zbakistanning cho‘l qismlari bilan tutashib ketadi. Ushbu qismlardan Baxiltog‘ning Oqbel, Ovaka tizmachalari ajralib chiqadi. Bu tizmalarning tabiiy xususiyatlarida Qizilqumning roli juda katta. Baxiltog‘ning bu qismining tabiatini Qizilqumning shimoliy-g‘arbiy qismidagi past tog‘lar (Bo‘kantog‘, Tomditog‘, Quljuqtog‘) ning tabiatiga ko‘proq o‘xshaydi. Baxiltog‘ning bu qismida iqlim xususiyatlari (250-270 mm yog‘in tushadi). Boshqa hududlariga nisbatan ajralib turadi. Shuningdek, tuproq o‘simglik xususiyatlari bilan shimoliy-sharqiylarida Baxiltog‘ tabiatini bilan keskin farq qiladi. Bu qismida asosan cho‘l o‘simgliklari formatsiyasi keng tarqalgan. Bulardan ayniqsa efemir va efemeroitlar eng ko‘p o‘sadigan o‘simgliklardir.

Baxiltog‘ning yer osti suvlarini tarqalishida ham sharqiy qismi bilan janubiy qismi o‘zaro farq qiladi. Masalan: Hududning tog‘li qismida yer osti suvlari 3-5 metrda uchrasa, adir mintaqalarida tekisliklarda 10-15 metrdan chiqadi.

Baxiltog‘da tuproq xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lib bu yerni tuprog‘i quruq (gumud) iqlimiga moslashgandir. Hududda turli-tuman o‘simlik dunyosi tarqalgan. Ular ham tog‘ qismini va tekislik qismini barcha qismlarida tarqalgan. Shuningdek, Baxiltog‘da hayvonot dunyosi va uning xususiyatlari bo‘yicha Oqtov tizma tog‘lari va Nurota tizma tog‘larini hayvonot olamiga o‘xshab ketadi.

Baxiltog‘ni tabiiy xususiyatlarini va uning tabiiy resurslarini o‘rganar ekanmiz, ushbu teritoriyani ikki qismga ajratamiz.

1. Adir – bu Baxiltog‘ni tekislik va tog‘ oldi teritoriyalarini o‘z ichiga oladi.

2. Tog‘ – bu Baxiltog‘ni ichki qismlaridagi tizmalar va atrofdagi ayrim past tog‘lar kiradi.

Baxiltog‘ Oqtog‘ tizma tog‘larning eng chekka shimoliy-g‘arbiy qismida joylashgan. Bu tog‘ o‘rtacha balandlikdagi tog‘ bo‘lib, eng baland nuqtasi 2000 metrga yaqindi (Baxil cho‘qqisi). Baxiltog‘ uncha katta hududni egallamaydi. U tarixan Oqtog‘ tizmasining davomi bo‘lib hisoblanadi. Bu tog‘ning janubiy-sharqida Oqtog‘ tizma tog‘lari joylashgan va bu Baxiltog‘ bilan tutashib ketgan. Tog‘likni janubida Langar tog‘lari joylashgan. Baxiltog‘ni janubiy-g‘arbidan Qoratog‘ tizmasi ajralib chiqadi. Bu tizma g‘arbgaga tomon pasaya boradi.

Baxltog‘ning shimoliy-g‘arbidan Oqbel tizmachasi ajralib ketadi. Shu ikki tizma orasidagi Orasoy cho‘kmasi Baxiltog‘ning g‘arbiy qismi bilan chegaralanadi. Bu tog‘ni shimoliy qismida Nurota tog‘ botig‘i joylashgan. Ana shu ikkala botiq orasida Baxiltog‘ tog‘lari qad ko‘tarib turadi. Bu tog‘ning g‘arbiy chegarasiga Qoratog‘ tizmasi bilan Oqbel tizmachasini sharqiy qismini, ya’ni Baxltog‘ga tutash teritoriyalarni Baxiltog‘ning umumiyligi maydoniga qo‘sish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ikkala tizmalar geologik jihatdan ham Baxiltog‘ga o‘xshab ketadi.

Baxiltog‘ geologik tuzilishi va tarixi jihatdan Oqtog‘ tizma tog‘lariga o‘xshab ketadi. Tog‘lari vujudga kelgan davrda ya’ni gersin orogenizi davrida vujudga kelgan. Gersin orogenizi juda kuchli tog‘ ko‘tarilishi jarayonida ro‘y bergen. Ushbu paytda kuchli bosim ostida yer ichkarisidan magmalar yer ustiga harakat qilgan, lekin magmalar yer yuzasiga chiqmasdan, qotib qolgan. Bu intruziv jinslar keyinchalik kuchli denudatsiya natijasida yer yuzasi ustki qismining yemirilib ketishi natijasida ochilib qolgan. Batolitlar deb ataluvchi bu intruziv jinslar Baxiltog‘ va unga yaqin hududlarda keng tarqalgan. Butog‘ hududidagi yer yuzasiga chiqib yotgan granitlar ham shunday batolitlardan biridir. Baxiltog‘ning markaziy qismlarida qadimgi qatlama paleozoy jinslari ochilib qolgan. Bu holni ko‘proq tog‘larning janubiy yonbag‘irlarida va tog‘ daryolari vodiylarida uchratish mumkin. Paleozoyning oxirlarida ro‘y bergen gersin tektonik harakatlari sekin-asta susaya boshlagan. Natijada hosil bo‘lgan tog‘lar yemirila boshlagan. Tog‘larning yemirilishi to bo‘r davrigacha qadar davom etgan. Yuqori bo‘r davrining boshlarida tog‘larda yana defferinsial tektonik harakatlar paydo bo‘lgan. Natijada tog‘larning ayrim qismlari ko‘tarilgan, ayrim qismlari cho‘kkan. Keyinchalik esa yuqori bo‘r va paleogen transgressiyalari yuz bergen.

Bunday harakatlar Turkiston, Zarafshon, Morguzar, Nurota, Oqtog‘ tizma tog‘larida bir vaqtda ro‘y bergan.

Ushbu harakatlar Baxiltog‘ hududi uchun ham xarakterlidir. Masalan: shu davrda Baxiltog‘ning markaziy qismlarida ko‘tarilishi ro‘y bergan. Tog‘likning shimoliy va janubiy-g‘arbiy qismlarining hududlari cho‘ka boshlagan.

Paleogen davrining oxirlarida O‘rtal Osiyo katta qismlari dengiz ostida bo‘ladi. Hozirgi zamon relefini vujudga kelishida neogen davrining ikkita bosqichli tektonik harakati muhim o‘rin tutadi. Bu bosqichlar butun Tyan-Shan tog‘ sistemasi uchun harakterlidir.

Birinchi bosqich – taxminan miotsenning o‘rtalarida va ikkinchi bosqichi esa iliosenning o‘rtalarida ro‘y bergan. O‘sha vaqtda Baxiltog‘ning tog‘ hosil bo‘lishining birinchi fazasi ro‘y berib, dengiz sathidan 1000 m balandlikgacha ko‘tarilgan.

Tog‘ jinslari asosan ohaktosh, slanets, granit, marmarlardan tashkil topib, ular qalin qatlamlarini hosil qilgan. Masalan: Oqbel tizmchasidagi marmar qatlamining qalinligi 1000 metrga yetadi. O‘sha davrda o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar hosil bo‘lib, differensial landshaft xususiyatlari vujudga kelgan. Tog‘ hosil bo‘lishining ikkinchi fazasida, taxminan neotsinni o‘rtalarida ro‘y bergan tektonik harakatlar natijasida tog‘lar bo‘laklanib palaxsa – palaxsa shakilda ko‘tarilgan. Janubiy yonbag‘irlar tez ko‘tarilgan. Shimoliy yonbag‘irlar prolyovial-allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Shu sababli ham shimoliy yonbag‘ir tik, janubiy esa nisbatan qiyaroq bo‘lib qolgan. Qadimgi paleozoy jinslar chuqr qatlamlarda qolib ketganlar 100-200 m chuqurlikda yotadi.

Baxiltog‘da qadimgi muz bosish davrlarning izlari yo‘q. Ammo kuchli muz bosish davrida ro‘y bergan kuchli yog‘inlar, shuningdek kuchli yemirilishlar natijasida muz izlari butunlay yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lishi mumkin Baxiltog‘da granitlardan tashqari paleozoy erasining kristallahgan ohaktoshlari va slaneslari keng tarqalgan. Ba’zi joylarda qumtoshlar ham uchraydi. Bu tog‘ jinslari bir necha marta tog‘ ko‘tarilishi natijasida kuchli metamorflashgan. Ohaktoshlar, slaneslar, granitlar umuman metamorfik jinslar Baxiltog‘ni tog‘ qismini egallaydi. Bu teritoriyada mezozoy erasining trias, yura davri yotqiziqlari topilgan emas faqat bazi joylarda, chuqr soy qirg‘oqlarida bo‘r davri jinslari uchrab turadi. Kaynazoyning paleogen davri yotqiziqlari ham uchraydi.

Baxiltog‘da neogen davri yotqiziqlari ancha keng tarqalgan. Litologik jihatdan bular kenglemeratlar, qumtosh va glinalardir. Genetik jihatdan bularni allyuvial-prolyuvial, dellyuvial va ellyuvial jinslarga ajratish mumkin.

Allyuvial yotqiziqlar soylarning qayirlarida va terassalarida prolyuvial yotqiziqlar butun-butun adir mintaqasida tarqalgan. Ellyuvial materiallarni asosan tog‘ mintaqasida uchratish mumkin. Baxiltog‘ni qazilma boyliklarini vujudga kelishi o‘sha hududni geologik rivojlanishi tarixi bilan bog‘liqdir. Bu yerda asosan paleozoy jinslari keng tarqalgan. Bu jinslar davrlar o‘tishi

mobaynida kuchli bosimga uchragan va natijada metamorfik jinslarni hosil qilgan. Bu teritoriyada tog‘-ruda xomashyosi bo‘lgan flyuorit, dala shpati, kvars, marmar, granit kabi qazilma boyliklar mavjud.

Bundan tashqari bu hududda metal foydali qazilmalardan nodir va rangli metallarni uchrashi kuzatilgan. Ayni vaqtda bu hududda oltin koni mavjudligi aniqlangan. Baxiltog‘da qurilish materiallari uchun ko‘plab ohaktosh, marmar, qumlar qazib olish imkoniyatlari hisoblab chiqilgan.

Bu hududning relyef tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib u murakkab tuzilishga egadir. Shu jihatdan ham biz Baxiltog‘ni geomorfologik jihatdan ikki qismga ajratib o‘rganamiz.

I. Tog‘oldi tekisliklari (adirlar).

II. Baland tog‘ qismi.

I. Baxiltog‘ni tog‘oldi chekkalarini o‘z ichiga olgan adirlar relefi xilma-xil tuzilishga egadir. Adirlarning dengiz sathidan balandligi 500 m dan to 800 m gacha boradi. Baxiltog‘ning tog‘oldi tekisliklariga Oqbel uchastkasi, Baxiltog‘ni shimoliy qismi va Qoratog‘ tizmasining shimoliy qismlari kiradi. Bu hudud relefining xarakterli xususiyati shundan iboratki, asosan bu yerda qirlar keng tarqalgan. Qirlarning nisbiy balandligi 200-300 metrni tashkil etadi. Qirlarni jarliklar kesib ularni bir-biridan ajratib turadi. Bu hududlarda ko‘plab soyliklar joylashgan. Soyliklardan jumladan Bog‘chasoy, Eskisoy, Shodmonsoy, Zulqarnaysoy, Shomurotsoy kabi o‘nlab quruq soylar mavjud. Soylar ko‘plab joylarda qadimgi strukturalarini o‘yib kirgan.etadi.

Soy atroflarini va uning o‘rtalarini turli allyuvial jinslar, shag‘allar, qumlar egallab yotadi. Tepaliklarni yon bag‘irlarida voronkalar va karst xodisalari uchraydi. Ular jala va sel natijasida hosil bo‘lgan. Baxiltog‘ning tog‘ oldi zonasida nurash protseslarida kuchli bormoqda. Yerlarning shudgorlanishi natijasida bu yerda shamol eroziyasi ro‘y bermoqda. Shamol eroziyasi natijasida ayniqsa yoz oylarida tuproq uyumlarini hosil qiladi. Suv eroziyasi tufayli yangi jarlar hosil bo‘lgan. Tepaliklarni umumiyligi sathi tuproqning yuvilishi natijasida pasayish protseslari ro‘y bergen.

Baxiltog‘ning baland tog‘ qismining relyefi juda murakkab tuzilgan. Tog‘likni ichki qismida bir necha kichik tizmalar parallel holda joylashgan. Tog‘likni janubiy qismida esa bir necha tog‘liklar o‘zaro bir-birlari bilan kesishadi va tog‘ tugunlarini hosil qiladi. Tog‘ tizmalarini ko‘plab soyolar kesib o‘tadi, natijada tog‘ yon bag‘irlari tik holatda kesilgan. Tog‘larni janubiy yon bag‘irlari sel yog‘inlari natijasida yuvilgan. Baland tog‘ qismining relefi notejisligidan, shuningdek o‘simlik dunyosining o‘sishi uchun sharoitni noqulayligidan ushbu hududlarda janubda kam miqdorda o‘simlik qoplami tarqalgan. Bundan tashqari baland tog‘ relefining notejisligi bu hududda chorva mollarini boqish uchun noqulayliklar tug‘diradi. Baland tog‘ qisimlari kuchli bo‘laklanib ketgan.

Tog‘ ichki qismlarida ko‘plab kichik-kichik tog‘ vodiylari mavjud. Vodiylarda turli daraxtlar va butalar o‘sib yetadi. Shuningdek kichik daryochalar ham shu vodiylardan oqib keladi. Tog‘larning tik yonbag‘irlarida surilma va o‘pirilmalarni uchratish mumkin. Bitov qishlog‘i atrofida ko‘plab shamol eroziyasi natijasida vujudga kelgan kanglomeratlarni shuningdek, tosh ustunlar, tosh imoratlarni turli hayvon shaklidagi granitlar uchraydi. Baxiltog‘ geomorfologiyasida karst hodisalari muhim ro‘l o‘ynaydi. Tog‘ yonbag‘irlarida karerlarni, sun’iy va tabiiy g‘orlar uchraydi. Shuningdek tog‘ yonbag‘irlarida karst hodisalari, uzilmalar, yoriqlarni juda ko‘plab uchratish mumkin. Shuni takidlab o‘tish kerakki bu hududni karst hodisalari to‘liq o‘rganilgan emas agarda ushbu ish amalga oshirilsa, ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lar edi.

Baxiltog‘ning geografik o‘rni va relyefini notekisligidan atrofdagi hududlarning iqlimidan keskin farq qiladi.

➤ Birinchidan, Qizilqum hududining bu yerga yaqinligi natijasida yozda kuchli qizigan havo massalari kirib kelsa, qishda esa sovuq havo massalari Qizilqum cho‘llaridan yetib keladi.

➤ Ikkinchidan hududning dengiz sathidan ancha balandligi va relefning notekisligi natijasida bahorda va kuzda esadigan nam havo massalarini Baxiltog‘ va uning atrofidagi tizmalar tutib qoladi. Natijada bu hudud atrofidagi hududlarga nisbatan ko‘p yog‘in yog‘adi. Baxiltog‘ga quyosh energiyasi ko‘p tushadi. Bug‘lanish yoz oylarida katta bo‘ladi. Yog‘in miqdori Baxiltog‘ atroflarida 200-250 mm baland tog‘ qismlarida 350-400 mm ni tashkil etadi.

Qish oylarida havo harorati yanvar-dekabr oylarida ko‘pincha 0 °C dan past, (hatto -20 °C dan past) harorat bo‘ladi. Bug‘lanish yoz oylarida kuchli bo‘lib, umumiylar yoz‘in miqdoriga nisbatan 8-10 marta ko‘p bo‘ladi. Yoz oylarida Qizilqum cho‘lidan kuchli, qizigan havoni bu yerga yetib kelishidan Baxiltog‘ni yer yuzasi nihoyatda qizib ketadi. Natijada kuchli shamollar va garmsellarni vujudga keltiradi. Garmsellarni shamollar ekin maydonlarga katta zarar yetkazadi. Shuningdek suv tanqisligiga olib keladi. Yoz oylaridagi kuchli shamollar tuproq eroziyasini vujudga keltiradi. Ko‘pgina hududni mayda chang zarrachalar bilan qoplaydi. Iyul-avgust kunlarida bunday to‘zonli kunlar 7-8 kunni tashkil etadi.

Shuningdek, bunday shamollar Baxiltog‘ hududini o‘simlik qoplami uchun ham nihoyatda katta zarar yetkazadi. Shamollar asosan yozda janub tarafdan esadi. Qishda shimol tomondan sovuq shamollar yetib keladi. Bu shamollar qish oylarida qor bo‘ronlarini hosil qiladi. Natijada, bu yerdagi chorva mollari uchun bu bo‘ronlar xavfli bo‘lib ayrim yillar ko‘plab chorva mollarini nobud bo‘lishiga olib keladi. Qishda asosan yog‘in qor shaklda tushadi va bahorda qorlar erib sellarni hosil qiladi. Bahorda g‘arbdan yetib kelgan nam havo massalari bu yerga ko‘plab yog‘in keltiradi. Bahordagi yog‘ingarchilik Baxiltog‘ hududidagi efemer va efemeroitlarni barq o‘sishga muhim ro‘l o‘ynaydi. Ayrim hollarda bahor faslini boshlarida shimoldan yetib kelgan sovuq

harorat ekinlarni va mevalarni sovuq urishiga olib keladi. Kuzda shamollar kam bo‘lib yog‘in shudiringlar, qirov va mayda yomg‘irlar (shuvod) tarzida tushadi. Yog‘inlarning ko‘p bo‘lishi o‘simlik qoplamini va yer osti suvlari uchun muhim ahamiyatga ega.

### Yer usti va yer osti suvlari

Baxiltog‘ning yer usti suvlari ancha notekis joylashgan. Yer usti suvlarining aksariyat qismi tog‘li qismlarda joylashgandir. Baxiltog‘da doimiy oqadigan daryolar yo‘q ammo juda ko‘p soylar va jilg‘alar mavjudki, ulardan faqatgina bahor oylarida suv oqimlari mavjud bo‘ladi. Baxiltog‘dan boshlanadigan eng katta Bog‘chasoy bo‘lib hisoblanadi. Bu soyning uzunligi 100 km ga yetib bahor oylaridan sel toshqinlari bo‘lib turadi. Bu soy o‘z oqimini ko‘p qismini Baxiltog‘dan va Oqbel tizmasidan olib, Orasoy cho‘lida tarqalib tugaydi. Baxiltog‘ning ikkinchi yirik soyi bu Chashmasoydir. Bu soyning uzunligi 60 km dir. Chashmasoy – Chashma qishlog‘ining yuqori qismidan boshlanib, eski qishlog‘ini yaqinida Bog‘chasoy bilan tutashadi. Bu soydan ham bahor oylarida yog‘ingarchilikni ko‘p bo‘lishi tufayli sel hodisalari bo‘lib turadi. Chashmasoy o‘z suvini Baxiltog‘dan va adirlardan to‘playdi. Baxiltog‘ning shimoliy qismida Zulqarnaysoy mavjud. Bu soy Baxiltog‘dan boshlanib Nurota cho‘kmasida yo‘q bo‘lib ketadi. Bu soy tog‘ soylaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

### XULOSA

Kuzatishlarga qaraganda Baxiltog‘da 30 dan ortiq ana shunday quriq soylar mavjuddir. Bunday soylar asosan Baxiltog‘ning ichki qismlarida va Qoratog‘ tizmasining shimolida joylashgan adirlardan tarqalgandir. Uzunligi jihatdan bu soyliklar kichik daryolardan qolishmaydi. Ammo, biz bularni daryo deb atashga haqli emasmiz. Chunki – birinchidan ularni doimiy oqadigan suv oqimi yo‘q, ikkinchidan daryoni hosil qiladigan tabiiy faktorlar bu hududda doimo uchramaydi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bu soylarda bir necha yuz yillar oldin doimiy suv oqimiga ega bo‘lgan. Shubhasizki, bu soylar bir vaqtlar kichik daryolarni tashkil etgan. Masalan: Bog‘chasoymda terrasalar, qayir ko‘zga yaqqol tashanib turadi. Bu dalillar asosida biz bir vaqtlar bu hududda daryolar mavjud bo‘lgan deya olamiz. Baxiltog yer osti suvlariga boy hududlardir. Baxiltog‘ning tog‘lik qismida ham yer osti suvlari uchraydi. Bu hududning yer osti suvlarining yotish holati turlichadir. Baxiltog‘ning tog‘ qismida asosan tog‘ jinslari yoriqlaridan chiqadigan suvlar buloqlardan iboratdir. Bu buloqlar tog‘ning turli joylarida ular turlicha uchraydi. Buloqlarning soni joyning qanday tog‘ jinslaridan tuzilganligiga bog‘liq. Eng ko‘p buloqlar granitlardan tuzilgan rayonlarda ko‘plab uchratish mumkin.

Ayniqsa Bitov uchastkasida ko‘plab uchraydi. Ohaktoshdan tuzilgan uchastkalardan deyarli uchramaydi, chunki ohaktoshda darzlar orqali atmosferadan tushgan yog‘inlar chuqurlikka tushib ketadi. Bu suvlar ohaktoshdan yaxshi sizib to suv o‘tkazmaydigan qismlargacha yetib boradi va bu yerda to‘xtaydi. Slaneslardan tuzilgan uchastkalarda esa buloqlar uchrab turadi. Tog‘ oldi

zonalari va adirlarda yer osti suvlari 10-15 m va undan chuqurlikda yotadi. Tog‘larda yer osti suvlari 3-5 metr chuqurlikda yotadi. Baxiltog‘ning g‘arbida joylasgan Orasoy cho‘kmasida esa yer osti suvlari 80-100 metr chuqurlikda yotadi. Baxiltog‘ hududida hozirgi vaqtda katta-kichik buloqlar 100 dan ortiq buloqlar mavjud. Bunday buloqlar Debaland, Eski, Shomurod, Oqtepa, Chashma, Zulqarnay, Bitov qishloqlari atrofida va Baxiltog‘ning ichkari qismida tarqalgan. Bu buloqlardan eng yirigi Debaland qishlog‘idagi buloq hisoblanib, u 200 ga yaqin aholini suv bilan ta’minlaydi. Shuningdek, buloq shu qishloq atrofidagi ekinzorlarni va chorva otarlarini suv bilan taminlaydi.

Nurota tumanida 100 dan ortiq korizlar mavjud. Ana shu korizlarni 10 ga yaqini Baxiltog‘ hududida uchraydi. Lekin hozirgi paytda ularning faqatgina qadimgi izlari qolgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
2. Ҳасанов И., Гуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1-қисм). Ўкув кўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007.
3. Бабушкин Л.Н, Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР. Труды ТашГУ. Нов.серия. вып 231. Географические науки, кн.27. –Т., 1964.
4. Ҳасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўрта Осиё табиий географияси.-Т.: Университет, 2002.